

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatiga 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning o‘rganib chiqilgani va natijadorligi xaqida tahliliy

MA’LUMOT

Vazirlikda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash, ijro monitoringini edo.uz elektron dasturidan foydalangan holda yuritish va nazorat qilish hamda ijro intizomiga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar yuzasidan vazirlikning har chorakda o‘tkaziladigan hay’at yig‘ilishlarida, doimiy o‘tkaziladigan vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlarida, shuningdek, har hafta yakuni bilan vazir, vazir o‘rnbosari (ijro intizomi masalalari bo‘yicha mas’ul) huzurida muntazam ravishda muhokama qilib borildi.

Vazirlikka 2024-yil davomida Prezident virtual qabulxonasi, PM.GOV.UZ sayti, Vazirlar Mahkamasi, Tadbirkorlar virtual ofisi, Bosh prokuratura virtual qabulxonasi, ye-xat, vazirlik ishonch telefoni, pochta xizmatlari, veb-sayt orqali jami 2833 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati kelib tushgan, bu 2023-yilga nisbatan 8,0% kam demakdir.

Kelib tushgan murojaatlardan 383 tasi (13,5%) vazirlik vakolatiga taalluqli bo‘lmaganligi sababli tegishliligi bo‘yicha boshqa vazirlik va idoralarga yo‘naltirilgan, 7 tasi (0,2%) yuzasidan anonim hamda 27 tasi (0,9%) yuzasidan ko‘rmasdan qoldirish xulosalari qabul qilingan.

Vazirlik vakolati doirasida o‘rganilib, hal etilgan 2416 ta (85,2%) murojaatdan 474 tasi (19,6%) yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan, 1942 tasi (80,3%) ijobiy hal etilgan.

Murojaatlarni o‘rganish jarayonida qonunosti hujjatlarda belgilangan muddatlar buzilishiga 2 ta (0,07%) holatda yo‘l qo‘ylGAN aniqlanib, bu haqda rahbariyatga bildirishnomalar kiritilgan va markaziy apparat yig‘ilishlarida qattiq mahokama etilib, xatoga yo‘l qo‘ygan 2 nafar mas’ul shaxslarga ogohlantirish berilangan.

Murojaatlarning 2616 tasi (92,3%) jismoniy shaxslardan, 217 tasi (7,6%) yuridik shaxslardan kelib tushgan bo‘lib, shundan 2166 tasi (76,4%) elektron, 90 tasi (3,1%) yozma hamda 60 tasi (2,1%) shaxsiy qabullarda va 517 tasi (18,2%) og‘zaki tartibda qabul qilingan.

Monitoring natijalariga ko‘ra, vazirlikka bevosita kelib tushgan 2833 ta murojaatdan 75 tasi (2,6%) turli idoralardan bitta shaxs va bir xil masalada yuborilgan dublikat murojaat ekanligi hamda fuqarolar tomonidan o‘rganish natijalaridan qoniqish hosil qilmaganligi sababli 24 tasi (1,3%) takroriy kelib tushganligi aniqlandi.

Murojaatlarning 47 tasi (1,7%) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senati, deputatlar, Ombudsman, 1813 tasi (64,0%) Prezident virtual qabulxonasi (pm.gov.uz), 77 tasi (2,7%)

Tadbirkorlar virtual ofisi, 92 tasi (3,2%) Bosh prokuratura virtual qabulxonasi, 54 tasi (1,9%) Vazirlar Mahkamasi, 49 tasi (1,7%) ye-xat elektron tizimi orqali boshqa vazirlik va idoralar, 517 tasi (182%) vazirlik ishonch telefoni, 60 tasi (2,1%) shaxsiy tashriflar, 124 tasi (4,3%) pochta xizmati, ye-mail, veb-sayt orqali kelib tushgan.

Murojaatlarning 1128 tasi (39,8%) sug‘orish suvi masalasi, 469 tasi (16,5%), irrigatsiya masalasi, 188 tasi (6,6%) suv xo‘jaligi obyektlari muhofaza yerlaridan foydalanish masalasi, 263 tasi (9,2%) ijtimoiy masala, 189 tasi (6,7%) nasos stansiyalari masalasi, 116 ta (4,0%) qurilish masalasi, 135 tasi (4,7%) melioratsiya masalasi, 68 tasi (2,4%) ichimlik suvi masalasi, 61 tasi (2,1%) davlat-xususiy sheriklik masalasi, 82 tasi (1,9%) suv tejovchi texnologiyalar masalasi, 60 tasi (2,1%) rahbar-xodimlar xati-harakati (harakatsizligi), 26 tasi (0,9%) korrupsiya masalasi, 24 tasi (0,8%) innovatsiyalar masalasi, 15 tasi (0,5%) investitsiya masalasi, 9 tasi (0,3%) baliqchilik tashkil etish va boshqa masalalarga taalluqlidir.

Murojaatlarning 94 tasi (3,3%) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 99 tasi (3,4%) Andijon viloyati, 353 tasi (12,4%) Buxoro viloyati, 94 tasi (3,3%) Jizzax viloyati, 253 tasi (8,9%) Qashqadaryo viloyati, 51 tasi (1,8%) Navoiy viloyati, 159 tasi (5,6%) Namangan viloyati, 217 tasi (7,6%) Samarqand viloyati, 176 tasi (6,2%) Sirdaryo viloyati, 327 tasi (11,5%) Surxondaryo viloyati, 208 tasi (7,3%) Farg‘ona viloyati, 98 tasi (3,4%) Xorazm viloyati, 198 tasi (6,9%) Toshkent viloyati, 14 tasi (0,4%) Toshkent shahri, 1 tasi (0,03%) xorijdan kelib tushgan.

Vazirlik rahbariyati tomonidan hududlarda 31 marotaba sayyor qabullar o‘tkazilgan bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillari qabul qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 21-fevraldaggi PF-37-sonli farmonining 4-ilovasi, 82-maqсади ijrosi yuzasidan uzoq hududlar aholisi bilan rahbariyat tomonidan 7 marotaba onlayn muloqot o‘tkazilib, ularning murojaatlari eshitilgan va tezkorlik bilan hal qilish choralari ko‘rilgan.

Vazirlikning Murojaatlar bilan ishslash bo‘limining 2024-yil uchun mo‘ljallangan Ish rejasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Chapqirg‘oq Amudaryo, Amu-Buxoro, Quyi Zarafshon, Sirdaryo-So‘x, Norin-Qoradaryo, Norin-Sirdaryo, Chirchiq-Ohangaron, Quyi Sirdaryo, Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va ularning huzuridagi tizim tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun va qonunosti hujjatlarga muvofiq o‘rganilayotgani tahlil qilingan.

O‘rganish natijasiga ko‘ra, ushbu tizimlarda hujjatlar bilan ishslashda bir qancha kamchiliklarga yo‘l qo‘ylganligi aniqlanib, joyida bartaraf etish choralari ko‘rildi. Vazirlik mas’ul xodimi va ITHB rahbarlari ishtirokida muhokama o‘tkazilib, yig‘ilish bayoni va chora-tadbirlar rejasি tasdiqlanib, kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish maqsadida tashkilot rahbari zimmasiga yuklatilgan.

Vazirlik mas’ul xodimi tomonidan ushbu qayd etilgan hududlarda murojaatlar bilan ishslashga mas’ul xodimlarga seminar shaklida murojaatlar bilan ishslashni tashkil etishda qonun va boshqa normativ hujjatlar bo‘yicha tushuntirishlar berilgan.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi